

**IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT ORGANLARI FAOLIYATIDA  
MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BARTARAF ETISHNING HUQUQIY VA  
INSTITUTIONAL MEKANIZMLARI (O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA  
XORIJIY YONDASHUVLAR TAHLILI)**

**KOZIMJON OLIMOV**

O‘zbekiston Milliy universiteti

Huquqiy fanlar kafedrası,

Davlat boshqaruvi mutaxassisligi magistranti

E-mail: [kozimjonoff26@gmail.com](mailto:kozimjonoff26@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishning huquqiy va institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza hamda amaliy mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, AQSh, Germaniya va ayrim Yevropa davlatlari tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ularni milliy huquqiy tizimga moslashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Maqolada manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish davlat boshqaruvi samaradorligi va shaffofligini ta’minlashning muhim omili sifatida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ijro etuvchi hokimiyat, manfaatlar to‘qnashuvi, davlat xizmati, huquqiy mexanizmlar, institutsional yondashuv.

**Abstract:** This article analyzes the legal and institutional mechanisms for preventing conflicts of interest in the activities of executive authorities. The study examines the regulatory framework and practical measures applied in the Republic of Uzbekistan in this field. In addition, the experience of the United States, Germany, and several European countries is comparatively analyzed, and the possibilities of adapting foreign approaches to the national legal system are substantiated. The article highlights the prevention of conflicts of interest as an essential factor in ensuring transparency and effectiveness in public administration.

**Keywords:** executive authorities, conflict of interest, public service, legal mechanisms, institutional approach.

**Аннотация:** В статье анализируются правовые и институциональные механизмы предотвращения конфликта интересов в деятельности органов исполнительной власти. Рассматривается нормативно-правовая база и практические механизмы, применяемые в Республике Узбекистан. Также проводится сравнительный анализ опыта США, Германии и ряда европейских государств, обосновываются возможности адаптации зарубежных подходов к национальной правовой системе. В статье подчеркивается значение предотвращения конфликта интересов как важного условия повышения прозрачности и эффективности государственного управления.

**Ключевые слова:** органы исполнительной власти, конфликт интересов, государственная служба, правовые механизмы, институциональный подход.

**Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasining davlat boshqaruvidagi konseptual o‘rni.** Davlat boshqaruvi tizimida manfaatlar to‘qnashuvi (conflict of interest) masalasi zamonaviy huquqiy davlat va “yaxshi boshqaruv” (good governance) konsepsiyasining markaziy elementlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Xalqaro huquqiy va siyosiy adabiyotlarda manfaatlar to‘qnashuvi davlat xizmatchisining shaxsiy, moliyaviy yoki institutsional manfaatlari uning xizmat vakolatlarini xolis va adolatli amalga oshirishiga real yoki potensial ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holat sifatida ta’riflanadi<sup>1</sup>. Ushbu holat korrupsiyaning bevosita shakli bo‘lmashligi mumkin, biroq u korrupsion xatti-harakatlar uchun institutsional zamin yaratadi va davlat boshqaruvi samaradorligini izdan chiqaradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan boshqaruv tizimlarida qarorlar sifati pasayadi, resurslar taqsimotida adolatsizlik kuchayadi hamda jamoatchilikning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi izchil

<sup>1</sup> OECD. *Managing Conflict of Interest in the Public Sector*. Paris, 2005, pp. 13–17.

ravishda yemiriladi<sup>2</sup>. Shu sababli manfaatlar to‘qnashuvi bugungi kunda faqat axloqiy muammo sifatida emas, balki **institutsional xavf** sifatida baholanmoqda.

**Ijro etuvchi hokimiyatda manfaatlar to‘qnashuvi xavfining yuqoriligi.**

Davlat hokimiyati tarmoqlari ichida aynan **ijro etuvchi hokimiyat organlari** manfaatlar to‘qnashuvi eng ko‘p yuzaga keladigan soha sifatida ajralib turadi. Buning bir necha obyektiv sabablari mavjud. Birinchidan, ijro etuvchi hokimiyat davlat siyosatini bevosita amalga oshiradi, budjet mablag‘larini taqsimlaydi, davlat xaridlarini tashkil etadi, litsenziya va ruxsatnomalar beradi hamda kadrlar siyosatini yuritadi. Mazkur vakolatlarning barchasi yuqori darajadagi diskresion qarorlar bilan bog‘liq.

Ikkinchidan, ijro etuvchi hokimiyatda qaror qabul qilish jarayoni ko‘pincha tezkorlik va operativlikni talab qiladi, bu esa huquqiy nazorat mexanizmlarining to‘liq ishlamasligiga olib kelishi mumkin. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, aynan diskresion vakolatlar yuqori bo‘lgan sohalarda manfaatlar to‘qnashuvi xavfi sezilarli darajada oshadi.

Uchinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimlari ko‘pincha vertikal bo‘ysunuvga asoslangan bo‘lib, bu holat manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashda mustaqillik va obyektivlikni cheklaydi<sup>3</sup>. Natijada manfaatlar to‘qnashuvi yashirin (latent) shaklda uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi mumkin.

**O‘zbekiston islohotlari kontekstida muammoning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli davlat boshqaruvi islohotlari manfaatlar to‘qnashuvi masalasini alohida dolzarb masalaga aylantirdi. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat boshqaruvini ochiq, shaffof va fuqarolarga xizmat qiluvchi tizimga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi<sup>4</sup>. Ushbu jarayonda korrupsiyaga qarshi kurash, xususan, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

<sup>2</sup> Klitgaard R. *Controlling Corruption*. University of California Press, 1988, pp. 44–49.

<sup>3</sup> World Bank. *Enhancing Government Effectiveness and Transparency*. Washington D.C., 2020, pp. 47–53.

<sup>4</sup> “Yangi O‘zbekiston” *Taraqqiyot Strategiyasi*, 2022, 34–36-betlar.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonunida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish korrupsiyaga qarshi siyosatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlangan. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqiy normalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish uchun yetarli emas. Mazkur muammo institutsional mexanizmlar, nazorat tizimlari va davlat xizmatchilarining axloqiy madaniyati bilan bevosita bog‘liq.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini O‘zbekiston tajribasi hamda xorijiy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda manfaatlar to‘qnashuvi faqat huquqiy norma doirasida emas, balki davlat boshqaruvi arxitekturasini va institutsional tuzilma kontekstida tahlil qilinadi hamda xorijiy mexanizmlarni milliy sharoitga moslashtirishning real imkoniyatlari asoslab beriladi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, u **ko‘p darajali metodologik yondashuv** asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda huquqshunoslik, davlat boshqaruvi nazariyasi va institutsional iqtisodiyot yutuqlariga tayangan holda sifat (qualitative) metodlar ustuvor qo‘llanildi. Ushbu yondashuv manfaatlar to‘qnashuvini faqat normativ hodisa sifatida emas, balki davlat boshqaruvi tizimiga ichki singib ketgan institutsional muammo sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Asosiy metodologik tayanchlaridan biri normativ-huquqiy tahlil usuli hisoblanadi. Ushbu usul orqali O‘zbekiston Respublikasida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o‘rganildi. Normativ-huquqiy tahlil manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasining qonunchilikdagi talqini, uning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar va huquqiy majburiyatlarning mazmunini aniqlashga xizmat qildi.

Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun normalari manfaatlar to‘qnashuvini korrupsiyaga qarshi siyosatning muhim elementi sifatida belgilashi



nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, Prezidentning davlat xizmatini isloh qilishga doir farmon va qarorlarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid normalarning qanday aks etgani aniqlashtirildi. Normativ-huquqiy tahlil jarayonida huquqiy normalarning deklarativ yoki amaliy xarakterga ega ekanligi, ularning ijro mexanizmlari bilan qay darajada mustahkamlanganligi alohida baholandi.

Mazkur usul manfaatlar to'qnashuviga oid huquqiy normalar va ularning real boshqaruv amaliyotidagi qo'llanilishi o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini berdi. Natijada huquqiy bazaning kuchli va zaif jihatlari ilmiy asosda baholandi.

Solishtirma-huquqiy tahlil usuli ham jarayonda muhim metodologik ahamiyat kasb etdi. Ushbu usul manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini O'zbekiston yondashuvlari bilan qiyosiy o'rganish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil AQSh, Germaniya, Fransiya hamda Skandinaviya davlatlarining normativ va institutsional modellarini qamrab oldi.

Mazkur davlatlar tanlanishi tasodifiy emas. AQSh manfaatlar to'qnashuvini boshqarishda mustaqil etik institutlar va majburiy deklaratsiya tizimi bilan ajralib tursa<sup>5</sup>, Germaniya professional betaraflik va xizmatdan tashqari faoliyatni cheklash tamoyiliga asoslangan modelni qo'llaydi. Fransiyada manfaatlar to'qnashuvi ustidan maxsus mustaqil organ orqali qat'iy monitoring amalga oshiriladi, Skandinaviya davlatlarida esa ochiqlik va jamoatchilik nazorati ustuvor hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil xorijiy mexanizmlarning samaradorligi, ularning huquqiy asoslari va institutsional tuzilmasini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarning O'zbekiston huquqiy tizimi va ijtimoiy-madaniy sharoitlariga mos yoki nomos jihatlari ilmiy asosda baholandi.

Institutsional tahlil esa, tadqiqot metodologiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish mexanizmlarini davlat boshqaruvi institutlari faoliyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga xizmat qildi. Ushbu usul orqali ijro etuvchi hokimiyat organlarida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va

<sup>5</sup> U.S. Office of Government Ethics. *Ethics Program Overview.*, Washington D.C., 2019, pp. 12–18.

boshqarish uchun mas'ul bo'lgan institutlarning vakolatlari, mustaqilligi va samaradorligi tahlil qilindi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, OECD va UNODC hisobotlarida manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish mustaqil yoki kamida funksional jihatdan nisbatan mustaqil institutlar mavjud bo'lgan sharoitda yuqori natija berishi ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda manfaatlar to'qnashuvini nazorat qiluvchi institutlarning ijro hokimiyatiga qanchalik bog'liqligi va bu holat obyektivlikka qanday ta'sir ko'rsatishi baholandi.

Institutsional tahlil manfaatlar to'qnashuvi muammosini shaxsiy xatti-harakatlar darajasida emas, balki tizimli hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Natijada ushbu muammoning ildizlari davlat boshqaruvi arxitekturasini bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy asosda yoritildi.

Mavzuning empirik va konseptual asosini xalqaro hujjatlar va tahliliy hisobotlar tashkil etdi. Xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) manfaatlar to'qnashuvini davlat xizmatchilari faoliyatida shaffoflikni ta'minlashning muhim elementi sifatida belgilashi nuqtai nazaridan o'rganildi<sup>6</sup>.

Shuningdek, OECD, SIGMA va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlar manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro standartlarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu hujjatlar tahlili asosida manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashning profilaktik, institutsional va axloqiy yondashuvlari ajratib ko'rsatildi.

Mazkur metodlar O'zbekiston tajribasini xalqaro standartlar bilan qiyoslash, mavjud bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmui manfaatlar to'qnashuvini huquqiy, institutsional va boshqaruviy jihatlarda kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Normativ-huquqiy, solishtirma-huquqiy va institutsional tahlil usullarining uyg'un qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

---

<sup>6</sup> United Nations. *United Nations Convention against Corruption (UNCAC)*. New York, 2004, Articles 7–8.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Avvalo, "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunda manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi mustaqil huquqiy kategoriya sifatida belgilangan bo'lib, u davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari xizmat majburiyatlariga zid kelmasligi lozimligini nazarda tutadi. Ushbu norma manfaatlar to'qnashuvini oldini olishni korrupsiyaga qarshi kurashning profilaktik mexanizmi sifatida talqin etadi.

Qonunchilikda manfaatlar to'qnashuvining mustahkamlanishi sababi davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish zarurati bilan izohlanadi. Chunki manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan sharoitda qarorlar sifati pasayadi, resurslar taqsimotida subyektivlik kuchayadi va ijtimoiy adolat tamoyillari buziladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur huquqiy mexanizm davlat boshqaruvida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, qonunchilikda manfaatlar to'qnashuvining umumiy ta'rifi mavjud bo'lsa-da, uni aniqlash, baholash va boshqarishning batafsil protsessual tartiblari yetarli darajada reglamentatsiya qilinmagan. Bu holat huquqni qo'llash amaliyotida turlicha talqinlarga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat xizmatini isloh qilishga doir farmon va qarorlarida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, 2017-yil 12-oktyabrdagi PF-5211-sonli Farmonda davlat xizmatchilarining faoliyatida shaffoflik, axloqiy me'yorlarga rioya etish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan<sup>7</sup>.

Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi sababi davlat xizmatida professionalizm va meritokratiya tamoyillarini mustahkamlash zarurati bilan bog'liq. Mexanizm sifatida davlat xizmatchilarining axloqiy kodekslarini joriy etish, ularning xizmat faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish va manfaatlar to'qnashuviga oid cheklovlarni kuchaytirish belgilangan. Ushbu choralarning oqibati sifatida davlat xizmatida huquqiy va axloqiy intizomning kuchayishi kuzatilmoqda.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-5211-son Farmoni, 12.10.2017, 2–3-bandlar.

Shu bilan birga, tahlil shuni ko'rsatadiki, farmon va qarorlarda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha belgilangan vazifalar ko'pincha umumiy xarakterga ega bo'lib, ularni amaliyotda amalga oshirish uchun aniq institutsional mexanizmlar talab etiladi.

O'zbekistonda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha institutsional mexanizmlar, asosan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki nazorat tizimlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimlar davlat xizmatchilarining faoliyatini monitoring qilish, huquqbuzarliklarni aniqlash va intizomiy choralar ko'rishga qaratilgan<sup>8</sup>.

Institutsional mexanizmlarning afzalligi shundaki, ular manfaatlar to'qnashuvini tezkor aniqlash imkonini beradi. Biroq ichki nazorat tizimlarining asosiy zaif jihati ularning ijro hokimiyati tizimiga to'liq bog'liqligidadir. Jahon banki hisobotlarida qayd etilishicha, manfaatlar to'qnashuvi ustidan samarali nazorat mustaqil yoki nisbatan mustaqil institutlar mavjud bo'lgan sharoitda yuqori natija beradi<sup>9</sup>.

Shu sababli O'zbekiston tajribasida institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, ularning mustaqilligini oshirish va jamoatchilik nazorati bilan uyg'unlashtirish zarurati aniqlanmoqda. Bu holat manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda faqat huquqiy normalar emas, balki institutsional arxitekturaning ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

Tahlillar natijalari O'zbekiston Respublikasida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha huquqiy asoslar shakllanganini, biroq ularning institutsional qo'llab-quvvatlanishi yetarli emasligini ko'rsatdi. Kuchli jihatlar sifatida manfaatlar to'qnashuvining qonunchilikda e'tirof etilishi, siyosiy irodaning mavjudligi va davlat boshqaruvi islohotlarining izchilligini qayd etish mumkin.

Zaif jihatlar esa manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va baholashning aniq mexanizmlarining yetishmasligi, mustaqil nazorat institutlarining cheklanganligi va

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Davlat xizmati tizimini takomillashtirishga oid hujjatlar*, 2019, 15–18-betlar.

<sup>9</sup> World Bank. *Enhancing Government Effectiveness and Transparency.*, Washington D.C., 2020, pp. 47–55.



profilaktik yondashuvlarning yetarli darajada rivojlanmaganligida namoyon bo'ladi. Ushbu xulosalar xorijiy tajriba bilan qiyoslash asosida yanada aniqlashtiriladi.

**Xorijiy davlatlarda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning huquqiy va institutsional mexanizmlari.** AQShda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish tizimi davlat boshqaruvida axloqiy boshqaruvning alohida yo'nalishi sifatida shakllangan. Mazkur modelning asosiy xususiyati manfaatlar to'qnashuvini jazolashdan ko'ra **oldindan aniqlash va boshqarishga** ustuvor ahamiyat berilishidadir. "Ethics in Government Act" (1978) hamda unga asoslangan ikkilamchi normativ hujjatlar davlat xizmatchilarining manfaatlar to'qnashuviga oid majburiyatlarini aniq belgilaydi.

AQSh tajribasida mexanizm sifatida, avvalo, **majburiy moliyaviy va manfaat deklaratsiyasi tizimi** joriy etilgan. Yuqori va o'rta bo'g'in mansabdor shaxslar o'z daromadlari, mol-mulki, moliyaviy majburiyatlari, shuningdek, qarindoshlari bilan bog'liq iqtisodiy manfaatlari to'g'risida muntazam deklaratsiya topshiradi. Ushbu deklaratsiyalar mustaqil federal organ – **Office of Government Ethics (OGE)** tomonidan tahlil qilinadi.

Mazkur mexanizmning natijasi shundan iboratki, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan holatlarda mansabdor shaxs jazoga tortilishidan avval qaror qabul qilish jarayonidan chetlashtiriladi yoki manfaatdor aktivlardan voz kechishga majbur bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda AQSh modeli manfaatlar to'qnashuvini "boshqariladigan xavf" sifatida ko'rishi bilan tavsiflanadi<sup>10</sup>.

Germaniya tajribasi manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda **professional betaraflik (Neutralität)** tamoyiliga asoslanadi. Germaniya "Beamtenstatusgesetz" qonuniga muvofiq, davlat xizmatchisi o'z lavozim vakolatlarini amalga oshirishda har qanday shaxsiy yoki tashqi manfaatlardan xoli bo'lishi shart.

Mazkur modelda asosiy mexanizm sifatida davlat xizmatchilarining xizmatdan tashqari faoliyati qat'iy tartibga solinadi. Tijorat faoliyati, konsalting xizmatlari yoki manfaatdor tashkilotlar bilan aloqalar faqat maxsus ruxsat asosida amalga oshirilishi

<sup>10</sup> Thompson D.F. *Ethics in Congress.*, Brookings Institution, 1995, pp. 45–52.

mumkin. Ushbu ruxsat berish mexanizmi manfaatlar to'qnashuvini dastlabki bosqichda aniqlashga xizmat qiladi.

Germaniya tajribasining natijasi sifatida davlat xizmati tizimida barqarorlik va yuqori kasbiy intizom shakllangan. Biroq ushbu model yuqori huquqiy madaniyat va xizmatga sadoqat darajasi mavjud bo'lgan jamiyatlarda samarali ishlashi qayd etiladi.

Fransiyada manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi, ayniqsa, siyosiy va ma'muriy elita faoliyati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish orqali hal etiladi. 2013-yilda tashkil etilgan **Haute Autorité pour la Transparence de la Vie Publique (HATVP)** yuqori mansabdor shaxslarning manfaatlar va mol-mulk deklaratsiyalarini qabul qilish, tekshirish va jamoatchilikka e'lon qilish vakolatiga ega.

Ushbu institutning asosiy mexanizmi manfaatlar to'qnashuvini aniqlagan taqdirda jazolashdan ko'ra **vakolatlarni cheklash yoki qayta taqsimlash** choralarini qo'llashdan iborat. Fransiya modeli manfaatlar to'qnashuvini siyosiy tizim barqarorligiga putur yetkazmasdan bartaraf etish imkonini beradi.

Ilmiy tahlillar Fransiya tajribasini manfaatlar to'qnashuvini boshqarishda mustaqil institutlarning hal qiluvchi rolini tasdiqlovchi misol sifatida baholaydi<sup>11</sup>.

Shvetsiya, Finlyandiya va Norvegiya kabi Skandinaviya davlatlarida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning asosiy mexanizmi **maksimal ochiqlik va jamoatchilik nazorati** hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda davlat hujjatlari, qaror qabul qilish jarayonlari va mansabdor shaxslarning manfaatdorlik aloqalari jamoatchilik uchun ochiqdir<sup>12</sup>.

Masalan, Shvetsiyada "ochiq hujjatlar prinsipi" asosida har qanday fuqaro davlat organlarining qarorlariga ta'sir etgan omillar bilan tanishish huquqiga ega. Bu mexanizm manfaatlar to'qnashuvini yashirish imkoniyatini deyarli yo'qqa chiqaradi va ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi.

Skandinaviya modeli manfaatlar to'qnashuvini huquqiy jazodan ko'ra **ijtimoiy bosim va ochiqlik** orqali bartaraf etishning samarali usuli sifatida e'tirof etiladi<sup>13</sup>.

<sup>11</sup> Council of Europe. *Ethics and Integrity in Public Administration.*, Strasbourg, 2017, pp. 70–84.

<sup>12</sup> Transparency International. *National Integrity System: Sweden.*, Berlin, 2019, pp. 62–75.

<sup>13</sup> Rothstein B. *The Quality of Government.*, University of Chicago Press, 2011, pp. 103–110.

Xorijiy davlatlar tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, manfaatlar to'qnashuvini samarali bartaraf etish uchun quyidagi shartlar muhim hisoblanadi:

- huquqiy aniqlik va majburiy deklaratsiya tizimi;
- mustaqil yoki nisbatan mustaqil nazorat institutlari;
- profilaktik yondashuvlarning ustuvorligi;
- jamoatchilik nazoratining kuchliligi.

Mazkur natijalar manfaatlar to'qnashuvini faqat huquqbuzarlik sifatida emas, balki **davlat boshqaruvi tizimining ichki xavfi** sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha shakllangan huquqiy va institutsional mexanizmlar xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyoslanganda, muayyan o'xshashliklar bilan bir qatorda sezilarli farqlar ham mavjudligi aniqlanadi. Xususan, O'zbekiston qonunchiligida manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaga qarshi kurashning muhim elementi sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, xorijiy tajribada ushbu tushuncha davlat boshqaruvi samaradorligining ajralmas institutsional komponenti sifatida qaraladi.

AQSh, Germaniya va Fransiya modellarida manfaatlar to'qnashuvi bilan ishlash mexanizmlari aniq institutsional vakolatlarga ega bo'lgan maxsus organlar orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda esa mazkur vazifalar, asosan, ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki nazorat tuzilmalari zimmasiga yuklatilgan. Bu holat nazorat mexanizmlarining obyektivligi va mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ichki nazoratga haddan tashqari tayanish "institutsional o'z-o'zini nazorat qilish paradoksi" sifatida tavsiflanadi<sup>14</sup>.

Shu bilan birga, O'zbekiston modelining muhim ijobiy jihati sifatida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishga qaratilgan siyosiy irodaning mavjudligini qayd etish mumkin. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hatto mukammal institutlar ham siyosiy qo'llab-quvvatlashsiz samarali ishlamaydi.

<sup>14</sup> Bovens M. *Public Accountability*. Oxford University Press, 2007, pp. 182–189.

Tahlillar asosida xorijiy tajribadan O'zbekiston sharoitida tatbiq etish mumkin bo'lgan bir qator mexanizmlar aniqlanadi. Avvalo, **profilaktik yondashuvga asoslangan deklaratsiya tizimi** O'zbekiston uchun nisbatan mos hisoblanadi. AQSh va Fransiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, deklaratsiya tizimi manfaatlar to'qnashuvini aniqlashdan ko'ra, uni oldini olishda samaraliroq hisoblanadi.

Ikkinchidan, manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha **maslahat va tushuntirish institutlarini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. Xorijiy davlatlarda davlat xizmatchilari manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda jazodan ko'ra, avvalo, maslahat olish va muammoni qonuniy yo'l bilan hal etish imkoniyatiga ega. Bu yondashuv huquqiy qo'rquvni kamaytiradi va ongli xatti-harakatlarni rag'batlantiradi<sup>15</sup>.

Uchinchidan, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda **jamoatchilik nazoratining bosqichma-bosqich kengaytirilishi** O'zbekiston sharoitida real va istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi. Skandinaviya davlatlaridagi to'liq ochiqlik modelini darhol joriy etish qiyin bo'lsa-da, muhim qarorlar va manfaatdorlik aloqalari bo'yicha axborotlarning oshkor etilishi davlat boshqaruvida ishonchni oshiradi.

Shu bilan birga, xorijiy tajribadagi ayrim mexanizmlar O'zbekiston sharoitida to'liq va bevosita qo'llanilishi mumkin emas. Masalan, Skandinaviya davlatlaridagi maksimal ochiqlik va deyarli barcha davlat hujjatlarini ommaga taqdim etish mexanizmi milliy huquqiy tizim va shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xuddi shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi uchun keskin jazolovchi choralarni joriy etish davlat xizmatchilarida tashabbussizlik va huquqiy ehtiyotkorlikni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, haddan tashqari jazolovchi yondashuvlar davlat boshqaruvi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur holatlar xorijiy modellarni tatbiq etishda "mexanik ko'chirish"dan voz kechib, ularni milliy sharoitga moslashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

<sup>15</sup> UNODC. *Handbook on Managing Conflict of Interest.*, Vienna, 2021, pp. 41–48.



Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda jazolovchi (repressive) va profilaktik (preventive) yondashuvlar o‘rtasida faol bahs mavjud. Jazolovchi yondashuv manfaatlar to‘qnashuvini huquqbuzarlik sifatida baholab, intizomiy yoki jinoiy choralarni ustuvor deb biladi. Profilaktik yondashuv esa manfaatlar to‘qnashuvini boshqariladigan xavf sifatida talqin qilib, uni oldindan aniqlash va neytrallashtirishga qaratiladi.

Xorijiy tajriba va ushbu tadqiqot natijalari profilaktik yondashuvning uzoq muddatli istiqbolda samaraliroq ekanini ko‘rsatadi. Chunki profilaktik mexanizmlar davlat xizmatchilarining huquqiy va axloqiy ongini oshirishga xizmat qiladi hamda manfaatlar to‘qnashuvini tizim ichida “normallashtirish”ning oldini oladi.

Manfaatlar to‘qnashuvini samarali bartaraf etishning hal qiluvchi omillaridan biri – **institutsional mustaqillik** hisoblanadi. AQSh, Fransiya va qisman Germaniya tajribasi manfaatlar to‘qnashuvi ustidan nazorat mustaqil yoki yarim mustaqil institutlar orqali amalga oshirilganda samaradorlik yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi<sup>16</sup>.

O‘zbekiston sharoitida manfaatlar to‘qnashuvini nazorat qilish mexanizmlarini ijro hokimiyatidan tashqarida yoki kamida funksional jihatdan nisbatan mustaqil tuzilmalarga bosqichma-bosqich o‘tkazish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish, balki umumiy davlat boshqaruvi tizimida hisobdorlik va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish universal modelga ega emas. Har bir davlat ushbu muammoni o‘zining huquqiy tizimi, boshqaruv modeli va ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga mos holda hal etadi. O‘zbekiston uchun xorijiy tajribadagi profilaktik, institutsional va bosqichma-bosqich joriy etish yondashuvlari nisbatan mos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuning fokusi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish masalasining huquqiy va institutsional jihatlarini O‘zbekiston tajribasi hamda xorijiy yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari manfaatlar to‘qnashuvi davlat

<sup>16</sup> Council of Europe. *Ethics and Integrity in Public Administration.*, Strasbourg, 2017, pp. 85–97.

boshqaruvi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi tizimli muammo ekanini, uni faqat huquqiy cheklovlar orqali emas, balki institutsional mexanizmlar majmui orqali bartaraf etish zarurligini tasdiqlaydi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha huquqiy asoslar shakllangan. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmon va qarorlari manfaatlar to'qnashuvini oldini olishni davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida mustahkamlagan<sup>1</sup>. Biroq mazkur huquqiy normalar ko'p hollarda umumiy xarakterga ega bo'lib, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, baholash va boshqarishning aniq protsessual mexanizmlari yetarli darajada reglamentatsiya qilinmagan. Bu holat huquqni qo'llash amaliyotida noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlarida manfaatlar to'qnashuvi xavfining yuqoriligi ushbu hokimiyat tarmog'ining vakolatlar hajmi, diskresion qarorlar ulushi va resurslarni taqsimlashdagi roli bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari aynan ijro hokimiyatida manfaatlar to'qnashuvi tizimli xavf sifatida namoyon bo'lishini va uni faqat individual xatti-harakatlar bilan bog'lab tushuntirish yetarli emasligini ko'rsatdi. Bu holat manfaatlar to'qnashuvini davlat boshqaruvi arxitekturasini bilan bog'liq institutsional muammo sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Uchinchidan, xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda **profilaktik yondashuv**ning ustuvor ahamiyatga ega ekanini tasdiqladi. AQSh, Germaniya, Fransiya va Skandinaviya davlatlari tajribasi manfaatlar to'qnashuvini jazolashdan ko'ra, uni oldindan aniqlash va boshqarish mexanizmlari orqali samarali nazorat qilish mumkinligini ko'rsatadi<sup>2</sup>. Xususan, majburiy deklaratsiya tizimi, mustaqil nazorat institutlari va jamoatchilik nazoratining uyg'unligi ushbu davlatlarda davlat boshqaruvi tizimining barqarorligini ta'minlamoqda.

To'rtinchidan, qiyosiy tahlil natijalari xorijiy mexanizmlarni O'zbekiston sharoitida to'liq ko'chirish emas, balki **moslashtirish** zarurligini asoslab berdi. Skandinaviya davlatlaridagi maksimal ochiqlik modeli yoki AQShdagi yuqori

darajadagi institutsional mustaqillik mexanizmlarini bevosita tatbiq etish milliy huquqiy tizim, boshqaruv an'analari va ijtimoiy-madaniy omillarni hisobga olmagan holda samarasiz bo'lishi mumkin. Shu sababli xorijiy yondashuvlar bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan joriy etilishi lozim.

Beshinchidan, tadqiqot manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda **institutsional mustaqillik** masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ichki nazorat tizimlariga haddan tashqari tayanish manfaatlar to'qnashuvini aniqlashda obyektivlikni cheklashi mumkin. Shu bois manfaatlar to'qnashuvini nazorat qilish bo'yicha mustaqil yoki funksional jihatdan nisbatan mustaqil institutlarni rivojlantirish O'zbekiston uchun istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi<sup>3</sup>.

Maqolaning **ilmiy ahamiyati** shundan iboratki, unda manfaatlar to'qnashuvi masalasi huquqiy norma doirasidan chiqib, davlat boshqaruvi tizimining institutsional muammosi sifatida yoritildi. Tadqiqot natijalari manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha milliy modelni shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Maqolaning **amaliy ahamiyati** esa manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining axloqiy va huquqiy madaniyatini oshirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Ushbu xulosalar ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan keyingi islohotlar uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusida manfaatlar to'qnashuvini raqamli boshqaruv sharoitida boshqarish, elektron deklaratsiya tizimlarining samaradorligi va sun'iy intellekt asosidagi monitoring mexanizmlarini o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu yo'nalishlar manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishning ilmiy asoslarini yaratadi.